XALQ DEPUTATLARI QO‘QON SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 29-mart VI-71-32-11-166-K/24 Qo‘qon shahar

Qo‘qon shahrdagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida

Qo‘qon shahar hokimligi huzuridagi “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasi” tomonidan geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha (3 ta istirohat bog‘i va 11 ta qabriston) ishlar olib borilib, takliflar O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Ekspert komissiyasiga yuborildi.

Yuborilgan jami 14 ta geografik obyektlardan (2 ta istirohat bog‘i va 11 ta qabriston) 13 ta geografik obyekt nomi O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-303-sonli qonun hujjatlari talablariga “muvofiq” deb topilib, “project.gov.uz” portaliga joylashtirildi. Jamoatchilik muhokamasidan o‘tgan 13 ta geografik obyektlar (2 ta istirohat bog‘i va 11 ta qabriston)ni Xalq deputatlari shahar Kengashi qarori bilan tasdiqlash hamda davlat reyestriga kiritish uchun hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligiga yuborish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonun, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida” 2012-yil 16-oktabrdagi 295-sonli qaroriga asosan Xalq deputatlari shahar Kengashi,

QAROR QILADI:

1.Qo‘qon shahar hokimligi huzuridagi “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasi”ning 2024-yil 20-fevraldagi 09-08/2-sonli yig‘ilish qarori ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Ekspert komissiyasining 2024-yil 12-fevraldagi 05-19-01-189-son yig‘ilish bayoni qaroriga asosan “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni talablariga “muvofiq” deb topilgan 13 ta geografik obyekt nomlari 1-ilovaga asosan tasdiqlansin.

3.Qo‘qon shahar hokimligi huzuridagi “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasi”ga:

“qonun talablariga muvofiq” deb topilgan geografik obyektlar joylashgan mahalla fuqarolari yig‘inlari raislari hamda shahar Obodonlashtirish boshqarmasi (A.Axmedov) mazkur qarordan kelib chiqqan holda o‘n kun muddatda o‘z tizimlarida hujjatlarga tegishli o‘zgartirishlar kiritish va shahar Ichki ishlar boshqarmasi hamda shahar Statistika bo‘limi, boshqa aloqador tashkilotlarga ma’lumotlarni taqdim etish;

geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bilan bog‘liq barcha ishlar geografik nom ko‘rsatkichlarini joylashtirilishi yoki almashtirilishi, hududlardagi korxona, tashkilotlar, muassasalar ish qog‘ozlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

4.Shahar Statistika bo‘limi ikki hafta muddatda yangitdan nomlangan va qayta nomlangan ko‘chalarning ko‘rsatkichlariga belgilangan tartibda o‘zgartirishlar kiritsin.

5.Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Qo‘qon shahar hokimligi huzuridagi “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiya”si (M.Usmonov) va Xalq deputatlari shahar Kengashining “Ijtimoiy-madaniy rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi”(O‘.Tojiyeva) zimmalariga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror matbuotda e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kirgan hisoblanadi.

Kengash raisi USMONOV MARUF AZAMOVICH

Xalq deputatlari Qo‘qon shahar
Kengashining
2024-yil 29-martdagi
VI-71-32-11-166-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni talablariga “muvofiq” deb topilgan 13 ta geografik obyekt nomlari

RO‘YXATI

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Komissiya tomonidan berilgan taklif	Tarixiy ilmiy asosi
1	Qabriston	“Nonvoyliguzar” MFY, Shohidon ko‘chasi	nomsiz	Kattaqabriston	Hijriy 1154-(milodiy 1741) yilda Qalmoq qabilalari Xo‘qandga hujum qiladi. Janglar bir necha oy davom etadi. Bu janglardan birida qipchoq jangchisi Nurboy Botir katta jasorat ko‘rsatib, qahramonlarcha halok bo‘ladi. Ushbu jang hal qiluvchi jang bo‘lib, qalmoqlar Xo‘qand ostonalaridan uloqtirib tashlanadi. Jangdan so‘ng qahramonlarni qayerga dafn etish masalasi muhokama qilingan paytda Xo‘qand xonligining yirik davlat arbobi Utab Bakovul qahramonlar, jumladan,

					Nurboy Botirni o‘z shaxsiy bog‘iga dafn etishni taklif qildilar. Qahramonlar dafn etilgach, bu joy “Shoxidon” – shaxidlar deb nom oladi. Utab Bakovul bu bog‘ga egalik huquqlaridan voz kechib, qabriston sifatida foydalanish uchun shaharga in’om etadi. Shundan so‘ng shu yaqin atrofdagi aholi ham mayitlarini shu qabristonga qo‘ya boshladilar. Shu tufayli qabristonning eski nomi unutilib, “Katta qabriston” deb nom oldi.
2	Qabriston	“Shayxon” MFY, Zavqiyobod ko‘chasi	nomsiz	Shayxon	1724-yilda Xo‘qand xoni huzuriga yetti nafar jahongashta shayx: Doniyodxon Eshon, O‘zbekxon To‘ra, Sevarxon To‘ra, To‘raxo‘ja Podshoh, Xoliqnazar Eshon, Darveshxon Bobo va Orifxon Avliyo tashrif

					buyurib, o‘z sarguzashtlarini so‘zlab: “endi qolgan umrimizni Xo‘qandni Dorulvaliyda o‘tkazishni niyat qildik. Bizga xonaqoh qurish uchun bir pokiza joy bersalar”, - deb maqsadlarini aytadilar. Xon ularga hohlagan yerlarini tanlashni taklif qiladi. Ular mazkur “Ravzan Childuxtaron” o‘rnini tanlaydilar. O‘sha yerga xonaqoh qurib yashaydilar. Bir yil ichida birin – ketin vafot etib, xonaqohga dafn etiladilar. Shu tufayli bu joy “Mozori Shayxon” – shayxlar mozori deb aytiladigan bo‘ldi. Shayxlardan so‘ng atrof mahallalar ham mayitlarni shu yerga dafn etadigan bo‘ldilar. Qabriston nomi mahallaga ham nom bo‘lib qoldi.
3	Qabriston	“Nurafshon” MFY, Sarmozor	nomsiz	Sarmozor	Sarmozor Xo‘qanddagi

		ko‘chasi			ishlab turgan, ya’ni hozirgi kunlargacha mayit qo‘yib kelinayotgan qabristonlarning eng qadimiysidir. Unga qachon asos solinganligi ma’lum emas, har holda Qo‘qon xonligi tashkil topgan vaqtda ham mavjud edi. “Sarmozor” atamasi fors tilidan olingan bo‘lib, “Sar” so‘zi “bosh”, “asosiy” ma’nosini anglatadi. “Mozor” so‘zi esa “margzor” – “murdazor”, “murdalar yotadigan joy” so‘zining talaffuzda o‘zgargan shaklidir. Demak, “Sarmozor” – bosh mozor, asosiy mozor demakdir.
4	Qabriston	“To‘xlimergan” MFY, Dalachilik ko‘chasi	nomsiz	To‘xlimergan	Bu qabriston ham eski qabristonlardan bo‘lib, qachon asos solingani aniq emas. Rivoyatga ko‘ra bu yerga birinchi bo‘lib Tuqli Mergan Bahodir dafn eilgan. Tuqli Mergan asli

					Ovchi qishlog‘idan bo‘lib, Qo‘qon xonlari ajdodlariga katta xizmat ko‘rsatgan. Shayboniylar sulolasining Farg‘onadagi hukmdori Sulton Sevinchxonni ov paytida yo‘lbars changalidan qutqarib qoladi. Bu jasorat evaziga katta mulk bilan mukofotlanadi. Bu yer-mulk hududida paydo bo‘lgan qishloq uning nomi bilan ataladi. Qabriston tarixiga hadya etgan vaqf yerlari vaqfnomasidir. Unda yozilishicha G‘alcha va Tuqli Mergan qishloqlari oralig‘idagi Sultoniy yerlardan qirq tanobi va Qorasuv arig‘ining shu hududdan o‘tgan qismi qabriston ehtiyojlari uchun vaqf mulki qilib beriladi. Yer va suvdan kelgan daromad qabriston obodonchiligi

					uchun go‘rkov va qorilar maoshiga, har dushanba kuni o‘tkaziladigan xatmi Qur’on xarajatiga hamda tobut, taxta kabi dafn anjomlarini yangilab turishga ishlatilishi, shuningdek, yerga ekilgan bug‘doyni tegirmonda tortirib, non yoptirib, shu yerdan o‘tib ketayotgan har bir yo‘lovchiga ulashish shart qilib qo‘yilgan.
5	Qabriston	“Avg‘onbog‘” MFY, Davronbek ko‘chasi	nomsiz	Avg‘onbog‘	Zaxiriddin Bobur Mirzo Samarqandni oxirgi marta zabt etganlarida saflarida afg‘on yigitlari ham bor edi. Boburxon Ubaydulloxon Shaybonixondan shikast yeb, Samarqandni tashlab ketganlarida afg‘on yigitlaridan bir dastasi Ubaydulloxon lashkari tomonidan asir olinadi. Afg‘on yigitlari Shayboniylar qo‘shiniga xizmatga kirishga

					majbur bo‘ladilar. Ular Xo‘qandning tashqarisidagi qal’ada xizmat o‘taydilar. Afg‘onlar shu atrofdagi aholi qizlariga, bevalariga uylanib, tomir otib qoladilar. Ular uchun qal’a yaqinidan katta yer ajratib beriladi. Bu aholi maskani afg‘on qishlog‘ deb, uning yonidagi mazkur afg‘on yigitlari barpo etgan bog‘ “Avg‘onbog ‘” deb nom oldi. Bog‘ning bir tomonidagi yer qabriston uchun ajratilib, Afg‘on dastasining xaylboshisi (yuzboshisi) Purdilxon dafn etiladi. “Vaqfnoma” deb ataladigan bu hujjatda Purdilxonning vafot yili hijriy 976 – (milodiy 1568) yil ekanligi yozilgan. Demak, qabriston tarixi ham 1568- yildan boshlanadi.
6	Qabriston	“Aziztepa” MFY, Istiqlol ko‘chasi	nomsiz	Aziztepa	Arziqtepa shahar qo‘rg‘onining ichi va tashida

					joylashgan aholi maskanlaridan biridir. Tuprog‘ida arziq (ohaksimon modda) ko‘p bo‘lganligi tufayli Arziqtepa deb atalgan. Qabristoninng “Arziqtepa” degan nom bilan yuritilishi so‘fiylardan bo‘lmish Abdulazizxon Xalifa Abdumajidxon Eshon o‘g‘illari nomlari bilan bog‘liq Abdulazizxon Xalifa XVIII asrningg ikkinchi yarmida XIX asr birinchi choragida yashab o‘tganlar. U kishi tasavvufda qodiriya yo‘lida borganlar. Peshavordan kelgan Miyol Fazl Axad Vaxxob Xalilullox – Soxibzoda Xazratga murid bo‘lgach, naqshbandiya tariqatiga kirganlar. U zotdan ko‘p karomatlar sodir bo‘lgan. Bu xokisor g‘arib xalifani xalq juda

					yaxshi koʻrib, izzat–hurmatini joyiga qoʻyib yurgan. Vafot vaqtlarini ham oldindan bilganlar. Oʻzlari xalqni janozaga chaqirib, jamoa oldida ikki rakat namoz oʻqib vafot etganlar. Xalq u zoti boborakotni katta izdihom bilan qabristonning eng baland qismiga dafn etilgan. Shundan soʻng qabriston "Aziztepa" degan nom oldi.
7	Qabriston	"Gʻalchasoy" MFY, Ozodlik koʻchasi	nomsiz	Gʻalchasoy	Qadimda "Jigʻachi"nomi bilan yuritilgan. Jigʻa yasovchi usta-hunarmandlar yashagan mahallada paydo boʻlgan. Jigʻa –bu erkaklar sallasiga taqiladigan bezak hamda ayollar zeb-ziynatining bir predmeti. Qoʻqonsoyning bir tarmogʻi "Gʻalcha" qishlogʻi oldidan oqib oʻtgani uchun shu soy boʻyida mahalla paydo boʻlgan va shu kungacha

					“G‘alchasoy” mahallasi deb yuritib kelinadi. Mahallada joylashgan “Jig‘achi” qabristoni ham nomi o‘zgarib “G‘alchasoy” deb nomlangan.
8	Qabriston	“Achchiqko‘l” MFY, Achchiqko‘l ko‘chasi	nomsiz	Oyboshi	Tasavvuf ta’limotiga ko‘ra mulkdor eshonlar o‘zlariga tushgan xayru-sadaqalarning bir qismini kambag‘allar uchun taom tayyorlashga ajratgan. Bunday eshonlar ko‘p bo‘lganligi uchun oyning, haftaning ma’lum qismlarini bo‘lishib olganlar. Shu jumladan, muayyan bir oyning boshida kambag‘allarga taom tarqatgan eshon Oyboshi eshon deb atalgan. Oyboshi eshon ko‘milgan qabriston “Oyboshi eshon” qabristoni deb atalgan. Keyinchalik xalq talaffuzidan eshon so‘zi tushib qolib “Oyboshi” nomi bilan qolgan.
9	Qabriston	“Buloqboshi”	nomsiz	Bog‘irahmat	XVI asrda

		MFY, Furqat ko‘chasi			qatag‘on qabilalari yashagan davrda “Qatag‘on” mozori bo‘lgan ushbu qabristonga keyinchalik “Bog‘irahmat” nomi berilgan. Avliyolar maskani. Xudo rahmatiga yetishgan odamlar ko‘milgan qabriston degan ma’noni anglatadi.
10	Qabriston	“Nurafshon” MFY, Bog‘ibanon ko‘chasi	nomsiz	Ko‘kto‘nliota	Tasavvuf ta’limotida so‘fiylar boyligi darajasiga qarab ikki toifaga ajratilgan. Hech qanday boylikka ega bo‘lmagan so‘fiylar-ularni ko‘kto‘nli so‘fiylar deb atashgan, mol-mulkka ega bo‘lgan so‘fiylar-ularni oqto‘nli so‘fiylar deb atashgan. Ko‘kto‘nli aziz ko‘milgan qabriston “Ko‘kto‘nliota” qabristoni deb atalgan.
11	Qabriston	“G‘oziyog‘liq” MFY	nomsiz	G‘oziyog‘liq	Qadimgi o‘zbek urug‘laridan biri g‘oz oyog‘lik deb atalgan. Urug‘ning

					bunday nomlanishiga qabila tamg‘asida g‘ozning oyog‘i (qush oyog‘i) ramzi tasvirlangan. XV asrlarda g‘oz oyog‘lilar urug‘i Qo‘qon shahri yaqiniga ko‘chib kelib, joylashganlar va G‘oziyog‘liq qishlog‘i paydo bo‘lgan. Qishloq aholisi ko‘milgan qabriston ham mahalla nomi bilan yuritila boshlagan.
12	Istirohat bog‘i	“O‘rmonbog‘” MFY, Furqat ko‘chasi	nomsiz	Yoshlar	Mustaqillik yillarida Yoshlarga oid davlat dasturi ijrosini ta’minlash maqsadida “Yoshlar” nomi berilgan
13	Istirohat bog‘i	“Yangi Chorsu” MFY	nomsiz	Furqat	1 8 5 9 - 1 9 0 9 - yillarda Qo‘qon shahrida tug‘ilib, ijod qilgan, ma’rifatparvar s hoir Zokirjon Xolmuxammad o‘g‘li Furqat nomini abadiylashtirish maqsadida qo‘yilgan.